



*hokimligi
maksiabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*

*maksiabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

ning

*20__-20__-o'quv yili 3-4-sinf
tabiatshunoslik fanidan
“Tabiat bilan do'stlashamiz” nomli*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

| Nº | Familiya ismi va sharifi | Tug‘ilgan sanasi | Sinfi | Manzili (to‘liq) | Ota-onasi (Ismi sharifi) | Telefon (uy yoki mobil) | Izoh |
|-----------|---------------------------------|-------------------------|--------------|-----------------------------|-------------------------------------|------------------------------------|-------------|
| 1. | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | |
| 6. | | | | | | | |
| 7. | | | | | | | |
| 8. | | | | | | | |
| 9. | | | | | | | |
| 10. | | | | | | | |
| 11. | | | | | | | |
| 12. | | | | | | | |
| 13. | | | | | | | |
| 14. | | | | | | | |
| 15. | | | | | | | |

| | | | | | | | |
|-----|--|--|--|--|--|--|--|
| 16. | | | | | | | |
| 17. | | | | | | | |
| 18. | | | | | | | |
| 19. | | | | | | | |
| 20. | | | | | | | |
| 21. | | | | | | | |
| 22. | | | | | | | |
| 23. | | | | | | | |
| 24. | | | | | | | |
| 25. | | | | | | | |
| 26. | | | | | | | |
| 27. | | | | | | | |
| 28. | | | | | | | |
| 29. | | | | | | | |
| 30. | | | | | | | |

O'tkazilgan xona _____

“_____” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari _____

“_____” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari _____

“TASDIQLAYMAN”
MMIBDO’

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Tabiat bilan do’stlashamiz” to‘garagining
 ISH REJASI**

| Nº | Yillik ish reja mavzulari | Soat | Sana | Izoh |
|-----------|--|-------------|-------------|-------------|
| 1. | Yer usti va yer osti suvlari | | | |
| 2. | Suvning xususiyati | | | |
| 3. | Tabiatda havo | | | |
| 4. | Yog‘inlar | | | |
| 5. | Foydali qazilmalar qayerdan olinadi? | | | |
| 6. | Yoqilg‘i sifatida foydalaniadigan qazilmalar. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz | | | |
| 7. | Qorametallar. Temirtosh. | | | |
| 8. | Marmar. Granit. Ohaktosh. Qum va gil | | | |
| 9. | Tuproq. Uning tuzilishi. Tuproqning unumдорлиги va ahamiyati. | | | |
| 10. | Tabiiy o‘simliklar | | | |
| 11. | Kartoshka, sabzavotlar, qulupnay, begona o‘tlar | | | |
| 12. | Poliz ekinlari, mevali daraxtlar, mevali butalar, tok | | | |
| 13. | Manzaralı o‘simliklar | | | |
| 14. | Dorivor o‘simliklar | | | |
| 15. | Tut daraxti. Ipak qurti | | | |
| 16. | Yovvoyi hayvonlar | | | |
| 17. | Hasharorlar | | | |
| 18. | Insonning tabiatga ta’siri | | | |
| 19. | Ekologik xavfsizlik | | | |
| 20. | O‘lkamiz tabiatni | | | |
| 21. | Yulduzlar. Quyosh | | | |
| 22. | Kichik sayyoralar. katta sayyoralar | | | |
| 23. | Oy – yerning tabiiy yo‘ldoshi | | | |
| 24. | Yer shari. globus | | | |
| 25. | Ufq va uning tomonlari | | | |
| 26. | Yerosti boyliklari | | | |
| 27. | Xaritalar | | | |
| 28. | Cho‘l va vohalar | | | |
| 29. | O‘lkamiz tog‘lari tabiatni | | | |
| 30. | O‘rmonlar | | | |
| 31. | O‘zbekiston qo‘riqxonalari | | | |
| 32. | Toshkent shahri va viloyati | | | |
| 33. | Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari | | | |
| 34. | Qoraqalpog‘iston respublikasi va Xorazm viloyati | | | |

Sana: “_” _____ 20 ____ -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Yer usti va yer osti suvlari.

Tayanch so‘zlar: globus, okean, dengiz, yer usti suvlari, yer osti suvlari, buloq, quduq, daryo, ko‘l.

Mashg‘ulotning maqsadi. Ta’limiy: O’quvchilarni atrofdagi manzarali o‘simpliklar namunalari bilan tanishtirish, ushbu mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;

berish. **Tarbiyaviy:** O’quvchilarni ona-Vatanni, saxovatli tabiatni asrab-avaylashga, himoya qilishga o‘rgatish.

milliy va umummadaniy kompetensiya;

Rivojlantiruvchi: Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish.

tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;

Mashg‘ulotning turi: Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi. Tabiatning turli fasllardagi manzarali o‘simpliklar rasmlari, mashg‘ulot ishlanmasi, texnik vositalar

Mashg‘ulotning borishi.

I.Tashkiliy qism. Sinfxonaning tozaligi ko‘zdan kechiriladi. O’quvchilar davomati va mashg‘uloga tayyorgarligi aniqlanadi.

II.O’tilan mavzuni so‘rash va mustahkamlash: Tabiatshunoslik nimani o‘rganadi? Mavzusini so‘rash. Uyga vazifa : a) turli o‘tlarning barglaridan; b) turli madaniy o‘simpliklar barglaridan. Yasalganligini tekshirish. O’quvchilar tomonidan yo‘l qo‘ylgan xato va kamchilliklarni birgalikda tuzatish.

III.Yangi mashg‘ulotni bayon etish. Okean va dengizlar.

Ona zaminimiz — Yer sharsimon shaklga ega. Yer yuzini o‘rganish uchun globusdan foydalaniladi. Globus — Yer sharining kichraytirilgan shakli. Globus sirtining katta qismini havo- rangda tasvirlangan suv egallagan. Bu — okean va dengizlardir. Okeanning quruqlikka tutashgan qismida dengizlar joylashgan. Dengiz — okeanning bir qismidir. Ba’zi dengizlar quruqlik ichkarisiga kirib borgan. Okean va dengizlarning suvi sho‘r bo‘ladi va ichishga yaramaydi. Odamlar okean va dengizlardan ko‘p miqdorda baliq ovlaydilar. Ulkan kemalarda yuklarni okean va dengizlar orqali tashiydilar. Okean va dengizlar ostidan ko‘p miqdorda neft va gaz qazib olinadi.

Daryo va ko‘llar. Globusda favorang egri-bugri chiziqlar bor. Bunday chiziqlar daryolarni bildiradi. Daryolar, asosan, tog‘lardan boshlanadigan jilg‘alardan hosil bo‘ladi. Daryolar o‘z yo‘lida sharsharalarni hosil qilishi mumkin . Ularning suvi, asosan, okean, dengiz va ko‘llarga quyiladi. Daryolar suvidan dala va bog‘larni sug‘orishda, aholi ehtiyojini qondirishda foydalaniladi. O‘lkamiz hududidan Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar oqib o‘tadi. Yer yuzining ba’zi botqoq joylarida tabiiy ravishda ko‘p miqdorda suv yig‘ilib qoladi. Bunday suv to‘plangan joy ko‘l deb ataladi.

Bir qismi o‘lkamiz hududiga tegishli bo‘lgan Orol dengizi aslida ko‘ldir. U dengiz kabi katta, suvi sho‘r va taxir bo‘lgani uchun qadimdan dengiz deb atalgan. O‘lkamizda Sariqamish, Aydarko‘l va Arnasoy kabi yirik ko‘llar ham mavjud. Okean, dengiz, daryo va ko‘l suvlari yer usti suvlarini tashkil etadi.

Muzliklar. Yer osti suvlari. Yerning Shimoliy va Janubiy qutblar atroflari eng sovuq joylardir (9-a, b rasm). Bu qutbning atrofini qoplagan muzliklar yozda ham erimaydi. Bunday joylar doimiy muzliklar deb ataladi.

Baland tog‘larning yuqori qismidagi qor muzlar ham yozda erimaydi . Ular ham muzliklarni tashkil etadi. Yomg‘ir va qor hisobiga dala va bog‘lar sug‘oriladi. Suvlarning bir qismi yer ostiga singib ketadi. suvlar yer osti suvlarini hosil qiladi. Ayrim joylarda yer ostidagi suvlar buloq bo‘lib sizib chiqadi. Suv bormagan joylarda quvurlar yer ostidan suv tortib chiqariladi. Ba’zi joylarda chuqur quduq qazib ham yer osti suvlaridan foydalaniladi.

IV.Yangi mashg‘ulotni mustahkamlash.

O’quvchilarning Yangi mashg‘ulot bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash ularga quyidagi savol-javob o‘tkaziladi.

1. Okean va dengiz bir-biridan qanday farq qiladi? Ularni globusdan ko‘rsating.
2. Okean va dengiz suvlarini nima uchun ichib bo‘lmaydi? 3.Daryo va ko‘l deb nimaga aytildi? O‘lkamizda qanday yirik daryo va ko‘llar mavjud?
4. Muzliklar qayerda bo‘ladi? 5. Yer osti suvlar haqida nimalarni bilasiz?

V.O’quvchilar bilimini baholash. O’quvchilarni mashg‘ulotdagi faoliyati besh ballik tizimda baholanadi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa. 1. Globusni ko‘rib chiqing. Okeanlarni toping, nomlarini daftaringizga yozing. 2. Globusdan bir nechta dengizni toping va ularning nomlarini daftaringizga yozing. 3. Globusdan bir nechta daryo va ko‘lni toping. Ularning nomini daftaringizga yozing.



va
doimiy
suvlari

Bu

orqali

uchun

Mavzu: Suvning xususiyati.

Tayanch so‘zlar: suvning kengayishi, suvning sivilishi, muzning erishi, suvning qattiq holati, suvning qaynashi, suvning bug⁴ holati, suvni muhofaza qilish, vodoprovod, suvni tejash.

Mashg‘ulotning maqsadi: Ta’limiy: O’quvchilarga ushbu mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

Tabiatdan oqilona foydalanish, suvni asrash va avaylab ishlatish

Tarbiyaviy: O’quvchilarni ona-Vatanni, saxovatli tabiatni asrab-avaylashga, himoya qilishga o‘rgatish.

suvga nisbatan munosabatni shakllantirish

Rivojlantiruvchi: Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish.

FK2-Suv havzalarining o‘rni va joylashishlarini aniqlash, ularning manbasini bilish.

Kunlik ishlata digan suv normasini bilish va taqsimlash

Mashg‘ulotning turi: Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi. Mavzuga oid rasmlar, mashg‘ulot ishlanmasi, texnik vositalar

Mashg‘ulotning borishi.

I. Tashkiliy qism. Sinfxonaning tozaligi ko‘zdan kechiriladi. O’quvchilar davomati va mashg‘ulotga tayyorgarligi aniqlanadi.

II. O’tilan mavzuni so‘rash va mustahkamlash: Yer usti va yer osti suvlari.

Mavzusini so‘rash. Uyga vazifa qay tarzda bajarganligini tekshirish. O’quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchilliklarni birgalikda tuzatish.


III. Yangi mashg‘ulotni bayon etish. O‘rmon, tog‘ yonbag‘irlari, yaylov va cho‘llardagi o‘simliklar, asosan, yomg‘ir suvi hisobiga o‘sadi. Cho‘llar eng kam yomg‘ir yog‘adigan yerlardir. Shuning uchun cho‘llarda o‘simliklar kamroq o‘sadi. Yer yuzida shunday katta cho‘llar borki, ularning ayrim qismlarida yil bo‘yi yomg‘ir yog‘maydi.

Bunday joylarda o‘simliklar deyarli o‘smaydi. Ayrim joylarda o‘sadigan o‘simliklar juda uzun ildizlari orqali yer ostidagi suvdan ichadi. O‘lkamizdagি Qizilqum cho‘lining ayrim joylarida bahorgi yomg‘ir suvidan so‘ng qumlar ostidan o‘tlar o‘sib chiqadi. Bu o‘tlar jazirama yozda qurib qoladi. Shuning uchun cho‘lda yoz oylarida o‘simliklar kam o‘sadi (10-rasm). Odamlar va hayvonlar suvsiz yashay olmaydi. Shu bois, aytish mumkinki, Yer yuzida suvsiz hayot bo‘lmaydi.

Suvning xususiyatlari. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda quyidagi tajribalarni o‘tkazing. 1- tajriba. Kolba olib, uni suv bilan to‘ldiring. Uning og‘ziga shisha nay o‘rnating. Kolbadagi suvni quruq yoqilg‘i yordamida asta-sekin isiting. Bunda kolbadagi suv isigan sari nay ichidagi suv yuqoriga ko‘tarila boradi (11-rasm). Demak, suv isiganda kengayadi. Shuning uchun chovgumga to‘latib quyilgan suv isiganda kengayadi va toshadi (12-rasm).

2- tajriba. Suv to‘ldirilgan kolba og‘ziga shisha nay o‘rnating. Suv nayni to‘ldirib tursin. Avvaldan muzlatkichga qo‘yilgan ho‘l lattani olib, kolbani o‘rang. Bunda kolba soviydi. Kolba sovigan sari naydagi suv pasaya boradi (13-rasm). Demak, suv soviganda siqiladi. 3-tajriba. Muzlatkichdan olingan muzni stakanga soling. Termometri stakan ichiga tushiring. Xona issiq bo‘lgani uchun muz eriy boshlaydi. Stakandagi muz erib, suvga aylanib bo‘lgunga qadar termometr 0°C ni ko‘rsatib turadi. Demak, muz 0°C da eriydi, ya’ni suv 0 °C da qattiq holatdan suyuq holatga o‘tadi. 4-tajriba. Kolbaga suv quyib, uning ichiga termometri tushiring. Quruq yoqilg‘ini kolba tagiga qo‘yib, yoqilg‘ini yoqing. Bir necha minutdan keyin suv isib, shig‘illay boshlaydi. Termometr ko‘rsatishi 100 °C ga

yaqinlashganda suv qaynay boshlaydi. Suvning qaynashi qancha davom etsa ham uning harorati 100 °C dan oshmaydi. Demak, suv 100 °C da qaynaydi. Qaynab turgan suv vaqt o'tgan sari bug'lanib, kamayib boradi va tugaydi. Bunda suv bug'holatiga o'tadi.



Suvni muhofaza qilish va tejash. Tog'larda daryo boshlanishida suv juda tiniq va toza bo'ladi. Lekin har xil chiqindilar tashlansa, daryo suvi ifloslanadi. Turli korxonalarining oqova suvlari ham daryoga quyilsa, suv ifloslanadi. Bunday daryo suvi ko'lga quyilsa, uning suvini ham ifloslaydi. Ifloslangan suvdan barcha tirik mavjudod zararlanadi. Bunday suv odam organizmi uchun xavflidir. Shuning uchun suvni, ayniqsa, oqar suvlarni, ko'l va hovuz suvlarini qaynatmasdan ichish mumkin emas. Suвлar ifloslanishining oldini olish uchun, birinchi navbatda, hech kim suvga chiqindi tashlamasligi kerak. Aholi kundalik ehtiyoji uchun vodoprovod suvidan ham foydalanadi. Vodoprovod suvi zararli mikroblardan tozalangan bo'ladi. Ba'zi xonadonlarda vodoprovod suvi behudaga oqib yotadi. Vodoprovod suvini olib kelishda ko'plab kishilarning mehnati sarflangan. Shuning uchun vo-dopravoddan suv oqib turgan bo'lsa, jo'mragini burab, uni to'xtatib qo'yish zarur. Suvni tejab ishlatish har birimizning burchimizdir.

IV. Yangi mashg'ulotni mustahkamlash. O'quvchilarning Yangi mashg'ulot bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun savol-javob o'tkaziladi. 1. Suvning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz? 2. Suv isiganda kengayadimi yoki siqiladimi? Soviganda-chi? 3. Muz necha darajada eriydi? 4. Suv necha darajada qaynaydi? 5. Suv muhofazasi va tejalishi uchun nima qilish kerak?

V. O'quvchilar bilimini baholash. O'quvchilarni mashg'ulotdagi faoliyati besh ballik tizimda baholanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa. O'tilgan mavzuni o'qib qayta hikoyalashga, tajribani takrorlab berishga tayyorlanib kelish.

Mavzu: Tabiatda havo.

Tayanch so‘zlar: havo, kislorod, azot, karbonat angidrid, shamol, yelkanli kema.

Mashg‘ulotning maqsadi. Ta’limiy: O‘quvchilarni atrofdagi yovvoyi hayvonot dunyosi namunalari bilan tanishtirish, ushbu mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

FK4. Tabiatni muhofaza qilish ekologik madaniyatni saqlab qolish va qizil kitobga kiritilgan daraxtlarni muhofaza qilishdan iborat.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni ona-Vatanni, saxovatli tabiatni asrab-avaylashga, himoya qilishga o‘rgatish. **TK4.** Ijtimoiy va madaniy tarzda toza havoni zaharli gazalardan himoya qilish.

Rivojlantiruvchi: Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish. **TK5.** Tabiatning sof va uyg‘unligini saqlab qolish.

Mashg‘ulotning turi: Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi. Tabiatning turli fasllardagi madaniyo‘simliklar rasmlari, mashg‘ulot ishlanmasi, texnik vositalar

Mashg‘ulotning borishi.

I. Tashkiliy qism. Sinfxonaning tozaligi ko‘zdan kechiriladi. O‘quvchilar davomati va mashg‘ulotga tayyorgarligi aniqlanadi.


II. O‘tilan mavzuni so‘rash va mustahkamlash: Suvning xususiyatlari.

mavzusini so‘rash. Uyga vazifa qanday bajarilganligini tekshirish. O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘ylgan xato va kamchilliklarni birgalikda tuzatish.


III. Yangi mashg‘ulotni bayon etish.

Havo nima?

Havo bizga ko‘rinmaydi. Harakatlanayotgan avtomobil oynasini ochganimizda yuzimizga havo uriladi. Yelpig‘ich bilan yuzimizni yelpisak ham havoni sezamiz. Havoning o‘zi nima? *Tajriba.* Bo‘s sh stakanni to‘nkarilgan holatda suv solingan idishga botiraylik. Go‘yoki, stakan ichida havodir. Stakan ichidagi havo o‘z joyini suvga bo‘shatib bermaydi. Endi stakanni bir tomonga og‘diraylik. Shu zahoti stakan ichidagi havo bulqillab suv yuziga chiqqa boshlaydi. Stakan ichidan chiqayotgan havo o‘rniga suv kira boshlaydi. Avvaliga havo suvning kirishiga yo‘l qo‘ymagan bo‘lsa, stakan og‘dirilganda shu havo suv yuziga chiqadi. Demak, bo‘s sh emas ekan, uning ichida havo bo‘lgan. deyarli kirmaydi. Faqat stakan ichida emas, balki ichi bo‘s shdek tuyulgan barcha idishlar ham havo bilan Bizga ko‘rin- maydigan havo turli moddalardan topgan. Havo tarkibida azot, kislorod, karbonat



stakan



to‘lgan.
tashkil

angidri
d, suv
bug‘i
va
boshqa
moddal
ar bor.

Amaliy ish. 1. Sharni puflab, og‘zini idishdagi suvga botirilgan holda qo‘yib yuboring.

Shardan nima chiqadi? 2. Stakandagi suvga bir bo‘lak kesakni tashlang. Suv yuziga ko‘tarilayotgan mayda pufakchalar ichida nima bor?

Havoning ahamiyati. Yer yuzidagi barcha o‘simlik va hayvonlar, shu jumladan, odamlar ham havodan nafas oladi. Odam va hayvonlar havodagi kislorodni yutib, havoga karbonat

angidrid chiqaradi (18-rasm). Odamlar ham, hayvonlar ham havosiz yashay olmaydilar. Baliq, akula, delfin, kit kabi suv hayvonlari ham kislorod yutib, o‘zidan karbonat angidrid chiqaradi. Chunki suv ichida ham havo bor. Tuproq orasida yashaydigan chuvalchang va boshqa mayda jonivorlar ham havodan nafas oladi. Chunki tuproq orasida ham havo bo‘ladi. Biz havodan 0‘simliklar bargi orqali havo dan nafas oladi. Ular havodagi karbonat angidridni yutib, o‘zidan kislorod chiqaradi. ghuning uchun Yer yuzida o‘simliklar qancha ko‘p bo‘lsa, havoda kislorod shuncha ko‘p bo‘ladi. O‘rmon, yaylov va tog‘ yonbag‘irlarida o‘simliklar qalin o‘sadi. Bu joylardagi havoda kislorod ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun o‘rmon, yaylov va tog‘ yon- bag‘irlarida sayr qilganlar havodagi kisloroddan to‘yib nafas oladi. **Shamolning hosil bo‘lishi.** *Tajribalar.* Qog‘oz parchalarini stol ustiga sochib qo‘yaylik. Daftар bilan yelpisak, ular uchib ketadi (19-rasm). Shar og‘zini qog‘oz parchalariga to‘g‘rilaylik. Undan chiqqa-yotgan havo qog‘oz parchalarini uchirib yuboradi. Birinchi tajribada biz daftар shamol hosil qilish' bilan havoni bir tomonдан ikkinchi tomonga harakatlantirib, shamolni hosil qildik. Ikkinci tajribada esa shardan ‘hiqqan havo harakatlanib, shamolni hosil qildi. Demak, shamol — havoning harakati. Shamol esayotganini daraxt barglarining tebranishidan ham sezish mumkin. Shamol kuchli bo‘lsa, daraxt shoxlari egiladi. Qadimda odamlar yelkanli kemalar yasaganlar. Bunday kemalar suvda shamol yordamida suzgan.

IV. Yangi mashg‘ulotni mustahkamlash. O‘quvchilarning Yangi mashg‘ulot bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun ularga quyidagi savollar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Atrofimizda havo borligini qanday sezish mumkin?
2. 17- rasmda aks etgan tajribani tushuntirib bera olasizmi?
3. Havo tarkibida nimalar bor?
4. Havo qanday ahamiyatga ega?
5. Yelpig‘ich va shar yordamida shamolni qanday hosil qilish mumkin?

V. O‘quvchilar bilimini baholash. O‘quvchilarning mashg‘ulotdagi faoliyati baholanadi.

VI. Uyga vazifa. Mavzuni o‘zlashtirish.

Sana: “ ” 20 -yil.Sinflar: ____ .To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Yog‘inlar

Tayanch so‘zlar: havo holati, ob-havo, harorati, bulut, yomg‘ir, qor, do‘l, yog‘in.

Mashg‘ulotning maqsadi. Ta’limiy: O‘quvchilarni Yog‘inlar ,ularning turlari bilan tanishtirish, ushbu mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

Yong‘inlarni va ularning turlarini bilish. Tabiatda suvning aylanishini bilish. geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetensiyasi

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni ona-Vatanni, saxovatli tabiatni asrab-avaylashga, himoya qilishga o‘rgatish. o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish. Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish.

tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

Mashg‘ulotning turi: Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi. Tabiatning turli fasllardagi madaniyo‘simliklar rasmlari, mashg‘ulot ishlanmasi, texnik vositalar

Mashg‘ulotning borishi.

I.Tashkiliy qism. Sinfxonaning tozaligi ko‘zdan kechiriladi. O‘quvchilar davomati va mashg‘ulotga tayyorgarligi aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash: Ob-havo havo mavzusini so‘rash. Uyga vazifa Tabiatda suvning aylanishini daftarga chizganligini tekshirish. O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchilliklarni birgalikda tuzatish.

III.Yangi mashg‘ulotni bayon etish. Yog‘inlar mavzusi tushuntiriladi.

Okean, dengiz, daryo va ko‘llar suvi muntazam)ug‘lanib turadi. Dala, bog‘ va boshqa joylardagi)‘simliklar va nam yerlardan ham suv bug‘lanadi.)smonga ko‘tarilgan suv bug‘lari bulutlarni hosil jiladi. Shamol bulutlarni bir joydan boshqa joyga laydaydi.

Bulutdagi suv zarrachalari birlashib, suv tomchilarini Daydo qiladi. Suv tomchilari esa yerga yomg‘ir bo‘lib fog‘adi.

Havo sovuq paytlarda bulutda muz zarrachalari losil bo‘ladi. Ular birikib, qor uchqunlarini hosil jiladi.

Bahorda ba’zan do‘l ham yog‘ishi mumkin. Do‘l io‘xatdek, ba’zida undan ham katta bo‘ladi. Do‘l ikinlarni payhon qilishi, bog‘dagi mevalarga shikast yetkazishi mumkin.

Yomg‘ir, qor va do‘l — yog‘inlardir.

22-rasm. Suv tomchilari hosil bo‘lishi tajribasi.

Amaliy ish

O‘qituvchi yordamida suv solingan stakanni quruq yoqilg‘i qo‘yib qay- nating. Undan chiqayotgan bug‘ni oyna bilan to‘sing.


Bunda oyna sirtida suv tomchilari hosil bo‘lishi va pastga tushishini kuzatish mumkin (22-rasm).

Kuzatilgan jarayonni yomg‘irning hosil bo‘lishi bilan taqqoslanadi va xulosa chiqariladi.


Tabiatda suvning aylanishi

Tog‘larga qishda qalin qor yog‘adi. Bahordan boshlab qorlar eriy boshlaydi. Qor suvlari yig‘ilib irmoqlarni, irmoqlar esa daryolarni hosil qiladi. Yomg‘ir suvlari ham yig‘ilib, daryolarga quyiladi. Daryoga yer osti suvlari ham qo‘shiladi.

Aksariyat hollarda daryo suvi dengiz va okeanlarga Quyiladi. Okean va dengiz suvlарining bir qismi hug‘lanib, osmonga ko‘tariladi. Suv bug‘lari osmonda



ustiga



23-rasm. Tabiatda suvning aylanishi.

mlutlarni hosil qiladi. Bulutlarning bir qismini shamol luruqlikka haydab keladi.

Bulutlardan qor va romg‘irlar yog‘ib, yana daryolarni paydo qiladi.

Shu tariqa suv tabiatda aylanib yuradi (23-rasm).

IV. Yangi mashg‘ulotni mustahkamlash. O’quvchilarning Yangi mashg‘ulot bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun ularga quyidagi savollar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Yomg‘ir qanday hosil bo‘ladi?
2. Mahalliy belgilarga qarab, ob-havo o‘zgarishini qanday aytib berish mumkin?
3. Tabiatda suvning aylanishini tushuntirib bering.

V. O’quvchilar bilimini baholash. O’quvchilarning mashg‘ulotdagi faoliyati besh ballik tizimda baholanadi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa. Mavzuni o‘qib o‘zlashtirish. Yog‘in va uning turlari va suvning aylanishini daftaringizga chizing.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu
nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki
nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi*

**Tabiiy fanidan 3-4-sinf o‘quvchilarga 34 soatli
to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan
yozing.**



Narxi: 15 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.